


21. Ko'p xonali sonlarni qo'shish va ayirish



Yondosh mavzu:
Andijon viloyati

Sana va vaqt,
murakkab ifodalar,
hisoblashlarning
qulay usullari



1. Ma'lumotlardan foydalanib, savollarga javob bering.



Zahiriddin Muhammad Bobur 1483-yilning 14-fevralida Andijonda tug'ilgan. U 1494-yilda Farg'ona hokimi bo'lgan. 1526-yilda esa Hindistonda boburiylar saltanatiga asos solgan. Bu davlat 1848-yilgacha, inglizlar Hindistonni bosib olgunlariga qadar mavjud edi. Podshoh va shoir Zahiriddin Muhammad Bobur 1530-yilning 26-dekabrida Agra shahrida vafot etgan.

Zahiriddin
Muhammad Bobur
qancha umr ko'rgan?

U necha yoshida
Farg'ona hukmdori
bo'lgan?

Hindistonda
Boburiylar davlati
necha yil hukmronlik
qildi?



Qo'shish va ayirishning hamma xossalari ko'p xonali sonlar uchun ham qo'llaniladi.

21. Ko'p xonali sonlarni qo'shish va ayirish



2. Qulay usulda hisoblang.

- a) $67\ 000 + 924 + 33\ 000 + 76$
- b) $38\ 400 - (18\ 900 + 18\ 400)$
- d) $(5\ 600\ 000 + 13\ 759\ 900) - 11\ 759\ 300$
- e) $30\ 000\ 000 - 1\ 790\ 000 - 8\ 210\ 000$
- f) $934\ 900 - (234\ 900 + 380\ 000)$
- g) $(27\ 480\ 350 + 34\ 760\ 847) - 17\ 480\ 350$



3. Rasmda berilgan ma'lumotlar asosida masala tuzing va uni yeching.



5 689



3 715



?

12 718




4. Amallarning to'g'ri tartibini ko'rsating. Hisoblang.

$$80\ 000 - (5\ 600 : 7 + 42\ 376) + 28\ 000 : 400$$



5. Shahrixon shahri pichoqchi ustalari bilan dong taratgan. Pichoqning uzunligini santimetrlarda toping.



21. Ko'p xonali sonlarni qo'shish va ayirish



6. Masalalarga mos ifodalar tuzing va ularning qiymatini hisoblang.

a) Bitta lagan 40 000 so'm, bitta piyola esa 10 000 so'm turadi.

Ko'rgazmada 5 ta lagan va 30 ta piyola sotib olindi.

Xarid uchun jami qancha to'landi?


b) 9 ta pichoq uchun 720 000 so'm, 4 ta do'ppi uchun esa

800 000 so'm to'landi. Do'ppi pichoqdan qancha qimmat?



7. Idishlar xonaning burchagidagi bir xil qutilarga joylangan.

Nechta quti ishlatilgan?



8. Qulay usulda hisoblang.

a) $6\,344 + 518 + 482 + 656$;

b) $87\,903 + 17\,655 + 12\,097 + 22\,345$;

d) $(39\,287 + 19\,485) - 16\,287$;

e) $(6\,890 + 3\,719) - 1\,709$;

f) $90\,000 - 76\,890 - 23\,110$;

g) $270\,492 - (129\,685 + 140\,492)$.



9. Rasmda berilgan ma'lumotlar asosida masala tuzing va uni yeching.

Rishton



65 ta buyum

Andijon



17 ta kam
buyum

G'ijduvon



6 marta kam
buyum

